Rossiyalik tadqiqotchilar Ye. V. Levkina va O. N. Shevchenko tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko‘ra, “banklarda aktivlar va passivlarni boshqarish – bu rentabellikni saqlash va turli risklarni minimallashtirish uchun kredit tashkilotining balans ko‘rsatkichlarini doimiy ravishda taqqoslash va tartibga solishdir. Shuningdek, tijorat banklari faoliyatida aktivlar va passivlarni boshqarish muammolarni aniq hal qilishga yordam beradi:

mablag‘larni jalb qilish (shu jumladan, shartlar va stavkalarni aniqlash);

mavjud mablag‘larni taqsimlash;

asosiy kapitalga investitsiyalar;

o‘z kapitalini saqlash va boshqalar” [6].

Tadqiqotchilar “aktivlar va passivlarni boshqarishning asosiy maqsadi – foiz daromadlari va bankning valyuta pozisiyasini belgilangan hamda bank likvid aktivlarini oqilona chegaralarda ushlab turishdan iborat” degan xulosaga kelishgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqoladagi muammoni oʻrganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bank aktivlari portfelini boshqarishda, aktivlarning asosiy qismini tashkil etadigan va muhim daromad manbai boʻlgan kredit portfelining oʻzgarishini baholash amaliy jihatdan yuqori ahamiyat kasb etadi (1-rasm).




1-rasm: Tijorat banklari kredit portfelining jami aktivlardagi ulushining oʻzgarishi (foiz hisobida)[1]

Tahlil davrida bank tizimi boʻyicha banklarning muhim daromad keltiruvchi qoʻyilmalari kamayish tendensiyasini namoyon etdi, ya'ni banklarning kredit portfeli qoldigʻi soʻnggi besh yilda 73,8 foizdan 66,9 foizgacha kamaydi. Ushbu holat AT "Aloqabank"da qariyb 15 foizga pasaygan boʻlsa, Xalq bankida 7 foizga kamaydi. 2023-yil holatiga kredit portfelining jami aktivlardagi ulushi 70 foizga yetgan boʻlsa-da, 2024-yil yakunida 66,9 foizgacha pasaydi. Buning asosiy sababi sifatida banklarning tayyor boʻlgan binolarini bank balansiga olishi va banklar balansiga olingan mol-mulklar miqdorining oshishi koʻrsatiladi. Ushbu holatda banklar balansiga olingan mol-mulklar kredit portfeli tarkibidan chiqarilib, alohida balans hisobvaraqlarida aks ettiriladi.

Tijorat banklari kredit portfelining jami aktivlardagi ulushining qisqarishini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, soʻnggi besh yillikda banklarning jami aktivlari 2,1 barobarga oshgan, uning tarkibida kreditlarning oʻsishi esa 1,9 barobarni tashkil etib, aktivlar oʻsishiga nisbatan ortda qolgan. Ikkinchidan, banklar aktivlar portfelida asosiy vositalarga, ayniqsa davlat ulushi mavjud banklarning yuqori qiymatdagi bino-inshootlar uchun oʻz mablagʻlari va jalb qilingan mablagʻlarni yoʻnaltirishi aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar qisqarishiga olib kelgan. Uchinchidan, banklarning balansiga olingan mol-mulklarning (bank balansi 16700-hisobvaraqlar qoldiqlari) oshishi ham bank aktivlarining kredit qoʻyilmalariga nisbatan yuqori sur'atlarda oshishiga sabab boʻlgan. Toʻrtinchidan, banklar aktivlari tarkibida ijobiy ta'sir qilgan omillardan biri banklarning qimmatli qogʻozlar va ularga qilingan investitsiyalar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Yuqoridagi kabi omillarning ta'sirini amaliy jihatdan koʻrib chiqish va tegishli xulosalar qilish banklar faoliyatida aktivlar portfelini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining qimmatli qogʻozlarga investitsiyalar kiritish amaliyoti banklarning aktivlar portfelini boshqarish va samaradorlikni oshirishda bugungi kunda muhim masala boʻlib qolmoqda. Banklar faoliyatida qimmatli qogʻozlarga qilingan investitsiyalarning ijobiy jihatlarini keltirib oʻtish maqsadga muvofiq boʻlib, uning asosiylari quyidagilardan iborat. Birinchidan, tijorat banklari tomonidan sotib olingan qimmatli qogʻozlar yuqori likvidli aktiv hisoblanadi va bankning yuqori likvidli aktivlari toifasiga kiritiladi. Bu esa bankning likvidliligini ta'minlash uchun qoʻshimcha xarajatlarni qisqartirishga hamda bank likvidliligi boʻyicha oʻrnatilgan normativlarni bajarishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Ikkinchidan, banklarning qimmatli qogʻozlari portfeli risk nuqtayi nazardan (Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatiga va Markaziy bankiga toʻgʻridan-toʻgʻri talablar hamda ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qogʻozlar, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari tomonidan chiqaril-

1 Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

gan ta'minlangan qarz munosabatlarini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlar, xorijiy davlatlar hukumatlari va Markaziy banklarining qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar) risk darajasi 0 foiz qilib belgilanganligi sababli bankning riskli aktivlarini kamaytirishga, buning natijasida esa bank kapitalining monandlik ko'rsatkichining yuqori bo'lishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, qimmatli qog'ozlardan olingan foizli daromadlar banklarning foyda solig'i bazasiga kiritilmaydi, natijada qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlarning 20 foizi bank foydasini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur holatda qimmatli qog'ozlarning yillik foiz stavkasi past bo'lishi mumkin, ammo yuqoridagi kabi ijobiy holatlar qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar banklarning barqarorligi, likvidliligi va belgilangan normativlarni bajarish nuqtayi nazaridan samarali ekanligini ko'rsatadi (2-rasm).




2-rasm: O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalarining jami aktivlar tarkibidagi o'zgarishi (foizda)[2]

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalari miqdori so'nggi besh yillikda o'sish tendensiyasini namoyon etdi va bu ijobiy holat hisoblanadi. Bank tizimida 2020-yilga nisbatan banklarning qimmatli qog'ozlarga kiritgan mablag'lari 1,8 foizdan 4,1 foizga oshib, 2024-yil yakunida 5,9 foizni tashkil etdi.

Tahlil davrida obyekti sifatida tanlangan banklardan Xalq bankining qimmatli qog'ozlarga kiritgan investisiyalari miqdori 15,5 foizga oshib, tahlil davri yakunida 16,9 foizni tashkil etdi. Trastbankning qimmatli qog'ozlarga kiritgan investisiyalarining jami aktivlardagi ulushi 12,9 foizni tashkil etib, 2024-yil yakunida 14,8 foizga yetgan. AT "Aloqabank"ning 2020–2024-yillar davomida qimmatli qog'ozlarga kiritgan mablag'lari miqdori jami aktivlari tarkibida 2 barobarga oshib, 4,6 foizdan 9,1 foizga yetdi.

Banklarning qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish amaliyotlari rivojlanishi va ularning aktivlar tarkibidagi ulushi ortishini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirishda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq amaliyotlar va REPO instrumentlaridan keng foydalanmoqda. Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilib, tijorat banklariga joylashtirilgan obligatsiyalar hajmi 2020-yil yakunida 5,3 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning 1-yanvar holatiga 17,5 trillion so'mni tashkil etdi.

Ikkinchidan, moliya bozorida Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan REPO operatsiyalari 2022-yilda 531,2 milliard so'mni, 2023-yilda 76 418,8 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda jami 273 440,3 milliard so'mlik REPO operatsiyalari amalga oshirilgan. Markaziy bank REPO operatsiyalari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasining pasayib borishiga qaramay, so'nggi yillarda uning jozibadorligi oshib borgan va ushbu amaliyotlar miqdori oshganini ko'rish mumkin.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar asosida banklar aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan aktivlar ulushiga nisbatan minimal talabni belgilash va uning bajarilishini ta'minlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (1-jadval).

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1-jadval:AT "Aloqabank" tomonidan qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investisiyalarning samaradorligi o'zgarishi[3]

| Ko'rsatkichlar | 31.12.2020 | 31.12.2021 | 31.12.2022 | 31.12.2023 | 31.12.2024 |
|---|---|---|---|---|---|
| Jami aktivlar, (mlrd.so'm) | 8 108 | 12 537 | 16 084 | 16 045 | 23 251 |
| Yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talab (%) | 10 | 10 | 10 | 10 | 10 |
| Bankning kassasidagi va Markaziy bankdagi mablag'lari, (mlrd.so'm) | 629 | 1 515 | 2 105 | 1 262 | 2 338 |
| Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar, (mlrd.so'm) | 371 | 410 | 790 | 210 | 2 114 |
| Bankning jami yuqori likvid aktivlari, (mlrd. so'm) | 1 000 | 1 925 | 2 895 | 1 471 | 4 452 |
| Yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talabning bajarilishi (%) | 12,3 | 15,4 | 18,0 | 9,2 | 19,1 |
| Shundan, kassali aktivlar hisobidan, (%) | 7,8 | 12,1 | 13,1 | 7,9 | 10,1 |
| qimmmatli qog'ozlar hisobidan, (%) | 4,6 | 3,3 | 4,9 | 1,3 | 9,1 |
| Qimmatli qog'ozlar jalb etilmagan holatda qo'shimcha resurslarni jalb etish uchun natijasidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qo'shimcha xarajatlar tejalishidan olingan shartli daromad (resurslar bo'yicha foiz xarajatlari Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasidahisoblangan) | 52 | 57 | 111 | 29 | 296 |
| Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar bo'yicha foizli daromadlar, (mlrd.so'm) | 27 | - | 78 | 91 | 266 |
| Qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan foizli daromadlarni soliq bazasidan chegirilishidan olingan natija (foyda solig'i 20 foiz), (mlrd. so'm) | 5 | - | 16 | 18 | 53 |
| Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalarning yakuniy natijasi (daromad yoki zarar), (mlrd.so'm) | 84 | 57 | 204 | 138 | 615 |

AT "Aloqabank" tomonidan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'larning so'nggi besh yilda oshirib borilgani ijobiy holat sifatida baholanadi. Bankning Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan normativni bajarishda qimmatli qog'ozlar hisobidan 2020-yilda 4,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakunida bu ko'rsatkich 9,1 foizgacha oshgan. Bu esa bankka qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish zaruratini kamaytirib, u bilan bog'liq resurs xarajatlarini tejash imkonini bergan.

Bankning qimmatli qog'ozlarga investitsiyasi mavjud bo'lmagan holatda, yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talablarni bajarish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish zarurati yuzaga kelgan bo'lardi. Natijada bank qo'shimcha resurslar jalb qilish va ular uchun foizli xarajatlarni amalga oshirishi talab etiladi. Bankning qo'shimcha resurslarni jalb etish uchun xarajatlar tejalishidan olingan shartli daromadlari Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasida hisob-kitob qilindi. Shartli daromad va soliq imtiyozi bilan birgalikda bankning 2024-yil yakunidagi qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan shartli moliyaviy natijasi 615,3 milliard so'mni tashkil etdi.

Banklarning qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lari hajmining oshishi ularning ijobiy moliyaviy natijalarga erishishida muhim omil bo'lganini qayd etish lozim (2-jadval).

3 AT "Aloqabank" hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-jadval:Trastbank tomonidan qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalarning samaradorligi o'zgarishi[4]

| Ko'rsatkichlar | 31.12.2020 | 31.12.2021 | 31.12.2022 | 31.12.2023 | 31.12.2024 |
|---|---|---|---|---|---|
| Jami aktivlar, (mlrd.so'm) | 4 735 | 6 876 | 8 232 | 9 450 | 10 868 |
| Yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talab (%) | 10% | 10% | 10% | 10% | 10% |
| Bankning kassasidagi va Markaziy bankdagi mablag'lari, (mlrd.so'm) | 1 360 | 2 200 | 2 418 | 2 233 | 2 231 |
| Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar, (mlrd.so'm) | 613 | 1 142 | 1 421 | 1 023 | 1 610 |
| Bankning jami yuqori likvid aktivlari, (mlrd. so'm) | 1 973 | 3 342 | 3 839 | 3 256 | 3 841 |
| Yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talabning bajarilishi, (%) | 41,7% | 48,6% | 46,6% | 34,5% | 35,3% |
| Shundan, kassali aktivlar hisobidan, (%) | 28,7% | 32,0% | 29,4% | 23,6% | 20,5% |
| qimmmatli qog'ozlar hisobidan, (%) | 12,9% | 16,6% | 17,3% | 10,8% | 14,8% |
| Qimmatli qog'ozlar jalb etilmagan holatda qo'shimcha resurslarni jalb etish uchun natijasidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qo'shimcha xarajatlar tejalishidan olingan shartli daromad (resurslar bo'yicha Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasida foiz xarajatlari hisoblangan) | 86 | 160 | 199 | 143 | 225 |
| Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar bo'yicha foizli daromadlar, (mlrd.so'm) | 72 | 16 | 235 | 199 | 207 |
| Qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan foizli daromadlarni soliq bazasidan chegirilishidan olingan natija (foyda solig'i 20 foiz), (mlrd.so'm) | 14 | 3 | 47 | 40 | 41 |
| Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalarning yakuniy natijasi (daromad yoki zarar), (mlrd.so'm) | 173 | 179 | 481 | 383 | 474 |

Trastbank tomonidan qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalarning jami aktivlardagi ulushi tahlil davrida 10 foizdan yuqori bo'lgani muhim natija hisoblanadi. Bu bankning qimmatli qog'ozlar portfelini samarali boshqarish amaliyoti mavjudligini ko'rsatadi. Bankning yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talabni bajarishi tahlilidan ushbu ko'rsatkichning o'rnatilgan talabga nisbatan yuqori bajarilayotganini ko'rish mumkin. Ushbu holat salbiy baholansa-da, bankning muddatsiz depozitlar qoldig'iga ega yirik mijozlari (birjalar va shu kabilar) mavjudligi hamda ularning faoliyatida doimiy qoldiq qolishi Trastbankning hisobot davridagi ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan. Bank tomonidan kassali aktivlarga (Markaziy bankdagi va kassadagi likvid aktivlar) ehtiyoj mavjud bo'lib, bu mijozlar oldidagi majburiyatlarni tezkor bajarish uchun ushlab turiladi.

Trastbank tomonidan qimmatli qog'ozlar portfelining optimal shakllantirilgani uning yakuniy moliyaviy natijalarida ham o'z aksini topganini ko'rish mumkin. Bankning qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalaridan erishilgan yakuniy natijasi 2024-yilda 474 milliard so'mni tashkil etgan va tahlil davrida 2,7 barobarga o'sgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalarining jami aktivlardagi ulushini 10 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash bankning aktivlar portfelini boshqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank tizimi bo'yicha tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalarining jami aktivlardagi ulushi 2024-yil 31-dekabr holatiga 5,9 foizni tashkil etgan. Tijorat banklari aktivlar portfelida qimmatli qog'ozlar ulushining oshirilishi kelgusida banklar aktivlar portfelini boshqarish bilan birga, makroiqtisodiy jihatdan fond bozorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (3-jadval).

4 AT "Aloqabank" hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3-jadval:O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari asosiy vositalarga qilingan investisiyalarining aktivlar tarkibidagi o‘zgarishi(foiz hisobida)[5]

| Banklar | 31.12.20 | 31.12.21 | 31.12.22 | 31.12.23 | 31.12.24 | 2024 yilda 2020 yilga nisbatan o‘zgarishi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Aloqabank | 5,7 | 6,5 | 7,7 | 12,8 | 11,1 | 5,4 |
| Trastbank | 5,0 | 4,2 | 4,1 | 4,1 | 4,5 | -0,5 |
| Xalq banki | 2,9 | 3,5 | 3,4 | 2,9 | 2,4 | -0,5 |
| Bank tizimi bo‘yicha o‘rtacha | 2,4 | 2,5 | 2,6 | 3,0 | 3,2 | 0,9 |

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari asosiy vositalarga qilingan investitsiyalarining aktivlar tarkibidagi ulushi o‘zgarishi tendensiyasidan o‘rtacha ko‘rsatkich tahlil davrida 0,9 foiz bandga oshganini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari, xususan davlat ulushi mavjud banklarning ko‘chmas mulklarga kiritayotgan investitsiyalari hajmi so‘nggi yillarda keskin oshib bormoqda. Ushbu holat bank tizimida binolar qurilishi, yirik yangi loyihalarda ishtirok etilishi natijasida aylanmadagi mavjud resurslarning bino-inshootlarga yo‘naltirilayotganini ko‘rsatadi. AT “Aloqabank”ning aktivlari tarkibida asosiy vositalarga qilingan investitsiyalarning jami aktivlardagi ulushi 2023-yil yakunida 12,8 foizga yetib, tahlil davridagi maksimum ko‘rsatkichni qayd etgani salbiy holat bo‘lib, bankning aktivlar portfelida daromad keltirmaydigan aktivlarning yuqori to‘planishiga sabab bo‘lgan. AT “Aloqabank”ning ushbu toifadagi aktivlari oshishi kelgusida aktivlar portfelini boshqarish va aktivlar samaradorligini oshirishda qator muammolarni keltirib chiqaradi.

AT “Aloqabank” faoliyatida mavjud asosiy vositalarni inventarizatsiya qilish hamda bank faoliyati uchun zarur bo‘lmagan va foydalanilmayotgan mol-mulklarni sotish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi. Ushbu tavsiyalarni amaliyotga joriy etish natijasida bankning asosiy vositalarining jami aktivlardagi ulushi 2023-yil yakunidagi 12,8 foizdan 2024-yil yakunida 11,1 foizga, ya’ni jami 1,7 foiz bandga pasayishiga erishildi.

AT “Aloqabank” balansida asosiy vositalarning qisqarishi hisobiga daromad keltiruvchi aktivlar, xususan qimmatli qog‘ozlar portfelining o‘sishi ta’minlandi (4-jadval).

4-jadval:O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlar tarkibida balansga olingan mol-mulklar qoldig‘ining o‘zgarishi(foiz hisobida)[6]

| Banklar | 31.12.20 | 31.12.21 | 31.12.22 | 31.12.23 | 31.12.24 | 2024 yilda 2020 yilga nisbatan o‘zgarishi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Aloqabank | 0,4 | 0,4 | 0,9 | 2,5 | 1,5 | 1,1 |
| Trastbank | 0,0 | 0,2 | 0,0 | 0,9 | 0,5 | 0,5 |
| Xalq banki | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 1,6 | 1,6 | 1,6 |
| Bank tizimi bo‘yicha o‘rtacha | 0,2 | 0,3 | 0,6 | 0,7 | 0,9 | 0,7 |

Tijorat banklari aktivlar tarkibida balansga olingan mol-mulklar qoldig‘ining o‘sish tendensiyasini namoyon etishi xavotirli holat hisoblanadi. Ushbu 16700-balans hisobvaraq qoldiqlari kredit portfelida muammoga aylangan va bugungi kunda foiz daromadi keltirmaydigan, auksionlarda sotilmagan nolikvid aktivlarning yig‘indisi bo‘lib, banklarning aktivlar samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

AT “Aloqabank”ning aktivlar tarkibida balansga olingan mol-mulklar qoldig‘i so‘nggi besh yillikda 0,4 foizdan 1,5 foizgacha oshgan hamda tahlil davrida 2,5 foiz bilan tarixiy maksimumni qayd etgan. Trastbank faoliyatida esa ushbu aktivlarning jami aktivlardagi ulushining pastligi ijobiy holat hisoblanadi va bankning aktivlar portfelini samarali boshqarish tizimi mavjudligini ko‘rsatadi. Bu bankning kredit siyosati, kreditlash jarayonlari hamda muammoli aktivlar bilan ishlash tizimini to‘g‘ri tashkil etgani bilan izohlanadi.

Banklarning muammoli aktivlari bilan ishlash borasida Xalq bankida ham ijobiy ko‘rsatkichlar qayd etilgan. Mazkur bankning aktivlari tarkibida balansga olingan mol-mulklar ulushi 0,1 foizdan 1,6 foizgacha oshgan, ya’ni 2023–2024-yillardagi qoldiq 1,6 foizni tashkil etgan.

Bank tizimi bo‘yicha ushbu ko‘rsatkichning o‘rtachasi 0,2 foizdan 0,9 foizgacha oshgani banklar aktivlarining qariyb 1 foizi immobil aktivlarga aylanib, daromad keltirmasdan bank aylanmasidan chiqqanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi “Qarzdorlik hisobiga banklar balansiga olingan mol-mulklar realizatsiyasini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-142-son qarori qabul qilingan.

5 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
6 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mazkur qarorga asosan, 2025-yil 1-maydan boshlab ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan banklar va ular huzuridagi investitsiya kompaniyalari auksionda sotilmasdan qarzdorliklarni so'ndirish evaziga bank balansiga olingan mol-mulklarni o'zlari sotish huquqiga ega [1]. Shuningdek, ular bunday mol-mulkni kredit, bo'lib-bo'lib to'lash yoki lizing shartnomalari orqali sotishlari mumkin [6]. Tijorat banklari qarzdorliklarni so'ndirish evaziga bank balansiga qabul qilingan bino-inshootlar, texnologik uskunalar va boshqa mol-mulklar negizida investitsiya kompaniyalari orqali to'xtab qolgan ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini tiklab, ularni tayyor biznes sifatida salohiyatli investorlarga sotish huquqiga ham ega. Ushbu amaliyotning joriy etilishi banklar balansiga olingan mol-mulklarni sotishni rag'batlantirib, aktivlar portfeli tarkibini samarali boshqarish imkonini beradi.

Tijorat banklari balansga olingan mol-mulklarni qisqa muddatda sotishni ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir:

balansga olingan mol-mulklar to'g'risida to'liq ma'lumotlarni shakllantirish hamda ularni sotish bo'yicha potensial xaridorlarga taklif qilish yoki bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali e'lonlar berish tizimini joriy etish;

ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida balansga olingan mol-mulklarni auksionga joylashtirish.

Banklar balansiga olingan mol-mulklarni kreditlar vositasida sotish amaliyotini keng qo'llaydilar. Ushbu holat muammoli aktivlarni vaqtinchalik bartaraf etgandek ko'rinishi mumkin, ammo kelgusida bu muammoli aktivlar hajmining yanada oshishiga olib keladi.

Bank mavjud muammoli aktivlarni sotish yoki ularni bo'lib-bo'lib to'lash shaklida berishda ushbu aktivlar summasidan tashqari, yangi ajratiladigan kreditlar stavkasini pasaytirish amaliyotini qo'llamasligi hamda ushbu kreditlar muddatini 3 yildan ortiq bo'lmagan muddatga cheklash amaliyotini joriy etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot yakunida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kredit portfeli so'nggi besh yillikda banklarning jami aktivlariga nisbatan qisqarish tendensiyasini ko'rsatgan. Buning asosiy sabablari ko'chmas mulk va boshqa nodaromad aktivlarga yo'naltirilgan sarmoyalar ortishi bilan bog'liq.

Qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar banklar uchun yuqori likvidli va kam riskli aktivlar sifatida strategik ahamiyatga ega. Bu investitsiyalar orqali banklar nafaqat daromad olish, balki soliq imtiyozlaridan ham samarali foydalanmoqda.

Asosiy vositalarga haddan tashqari investitsiya kiritilishi (ayniqsa, davlat ulushi mavjud banklarda) banklar portfelida daromad keltirmaydigan aktivlar ulushining oshishiga olib kelmoqda. Bu holat uzoq muddatda bank samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Balansga olingan mol-mulklar ulushining oshishi foiz daromadi keltirmaydigan aktivlarning ko'payishiga va bank resurslarining muzlab qolishiga sabab bo'lmoqda. Bunday aktivlarni qisqa muddatda realizatsiya qilish va qayta moliyaviy aylanishga kiritish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Tijorat banklari faoliyatida aktivlar portfelining samaradorligini oshirish uchun qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushini 10 foizdan yuqorida saqlash, asosiy vositalarni optimallashtirish va balansga olingan mol-mulklarni sotish tizimini takomillashtirish zarur.

Prezident qarorlari asosida joriy etilayotgan mol-mulk realizatsiyasi bo'yicha yangi mexanizmlar banklar balansini tozalash va aktivlar tarkibini sog'lomlashtirishga xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 apreldagi "Qarzdorlik hisobiga banklar balansiga olingan mol-mulklar realizatsiyasini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-142-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/5-son qarori bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizom. https://lex.uz/uz/docs/2703053
3. Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка.- М.2003.371-с
4. Зубов С. А. Управление активами коммерческого банка: дис. … канд. экон. наук. - М., 1997. - 180 с.
5. Осадчий В.В. Методология и принципы распределения активов // Журнал прикладных исследований. –2021. – № 6. – С. 128-132.
6. Левкина Е.В., Шевченко О.Н. Оценка управления активами и пассивами в коммерческом банке (на примере ОАО АКБ Приморье) журнал Экномические науки/ №8 2015 г. СТР.47-56. https://expeducation.ru/ru/article/view?id=7818
7. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/banklar_qarzdorlik_hisobiga_balansga_olingan_mol-mulklarni_uzlari_sotishadi

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**